

**MUZEYLARGA SAYOHAT ORQALI TALABALARINI JISMONIY  
TARBIYA VA SPORTGA BO’LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH**

**Elova Sitora Axmatkulovna**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*

*Jismoniy madaniyat kafedrasи*

*jismoniy tarbiya o’qituvchisi tel: 919618118*

**Omonova Dilsuz Xolmirza qizi**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*

*Jismoniy madaniyat xotin qizlar sporti*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga talabalarni sayohat qildirish orqali ular ongida jismoniy tarbiya va sportga bo’lgan qiziqishini oshirish va samaradorligi va turistik sayohatni rivojlantirish haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** muzey, sport, olimpiya, eksponat, turistik, sayohat, bilim, ko’nikma.

O’zbekistonda Olimpiya harakatini keng targ‘ib qilish, ommaviy jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish, o‘sib kelayotgan jismonan sog‘lom va garmonik rivojlangan avlodni tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilingan edi.

1996 yil 1 sentyabr – Toshkentda Xalqaro Olimpiya shon – shuhrati muzeyi ochildi. Olimpiya shon – shuhrati muzeyi (Rashidov ko’chasi, 4 a-uy) – O’zbekistonda olimpiada harakati va sport yutuqlarini targ‘ib qiluvchi markaz. 1996 yil 1 sentyabrdan Toshkentda ochilgan. Osiyo qit’asida birinchi tashkil qilingan olimpiya muzeyi hisoblanadi.[4]

O’zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyi Olimpizm qadriyatlarini hamda «halol o‘yin» tamoyillarini targ‘ib qilishda, O’zbekiston sportchilarini olamshumul g‘alabalari va mamlakatimizda Olimpiya xarakatini rivojlantirish tarixi to‘g‘risida keng jamoatchilikni bohabar qilishda muhim o‘rin egallaydi. Shu maqsadda muzeyda Vatanimiz sportchilarining Olimpiya o‘yinlari hamda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan nufuzli musobaqalarda qo‘lga kiritgan g‘alabalarini o‘zida aks ettiruvchi turli mavzudagi ekspozitsiyalar va ko‘rgazmali tadbirlarni doimiy ravishda tashkil etiladi.

O’zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyida 2000 dan ortiq eksponat o‘rin egallagan bo‘lib, shundan mingdan ortig‘i doimiy ekspozitsiyaga qo‘yilgan. Muzeyda medallar, kuboklar, mayoqlar, pochta markalari, sport anjomlari va kiyim-kechaklari ko‘p miqdorda ko‘rgazmaga qo‘yilgan. [1]

Barchamizga ma'lumki, Olimpiya shon-shuhratni muzeyida saqlanayotgan g'abalalarini o'zida aks ettiruvchi turli mavzudagi ekspozitsiyalar va ko'rgazmali tadbirlar orqali insonlar ayniqsa, yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, beba ho tarixiy va madaniy merosga hurmat, gurur va iftixon, Vatanga sadoqat va muhabbat tuygularini tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalash va kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shu bois turizm sohasini rivojlantirish, uning xalqaro standartlarga moslashtirish bilan birga jamiyatimiz ongida ham turistik faoliyatga qiziqishni rivojlantirish, ta'lim tizimida uning nazariy va ilmiy asoslarini takomillashtirish bilan birga talaba-yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishini ortishiga bog'liq kuchli ta'sir ko`rsatuvchi vositalarini topishga harakat qilmoqli joizdir.

Bo`lajak o`qituvchilarini turistik faoliyatga yo`naltirish ham ularni o`zgartirish yo`lidagi muhim qadamlardan bo`ladi. Shuningdek, ulardag'i ichki iqtidor va qiziqishlarini namoyon qilish, o`zi istagandek hayot kechirishga yo`naltirishning samarali yo`li hisoblanadi. Chunki turistik faoliyat har bir insonga kuchli ta'sir qiluvchi vosita, uni uyg`otuvchi, hayotga boshqacha ko`z bilan qarashga undovchi, ichki istaklari tomon undovchi motivatsion ta'sir hisoblanadi. Turistik faoliyat bo`lajak o`qituvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini ochuvchi, oshiruvchi omil hisoblanadi. Muzey pedagogikasi bilan talabalar amaliyot yoki muzeylarga ekskursiya qilish, bu bilan bog`liq seminar mashg`ulotlarini o`tkazish jarayonida duch keladilar. Oliy ta'lim muassasalarida muzey pedagogikasi fani o`tilmaydi va shu bois talabalarning bu boradagi bilim va ko`nikmalari ham unchalik yuqori bo`lmaydi. Biroq muzeylarga tashrif buyuruvchilar yoki bu yerda bilimlarini oshirishga intiluvchi talabalarga muzey pedagogikasi asosida ta'sir ko`rsatishi, ularni turistik faoliyatga yo`naltirishi mumkin. [2]

Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida o`tilayotgan ayrim fanlarni muzeylarda o`tish, seminar mashg`ulotlarini ko`proq muzey eksponatlari bilan bog`lab, o`rganish orqali olib borish yoki amaliyot jarayonlarini muzeylarga biriktirish samarali hisoblanadi. Shuningdek, bo`lajak o`qituvchilarni muzeylarga yo`naltirish orqali ularning turistik bilimi va ongini oshirish mumkin bo`ladi. Bilamizki, bir insonning biror joyga borish istagi o`sha joy haqidagi ma'lumotlar asosida ortib boradi. Shu bois bo`lajak o`qituvchilarda turistik faoliyatga yo`naltirishning eng samarali yo`li bo`lsa, ularning qiziqishlarini oshirish, emotSIONAL va yuqori kayfiyatni hosil qilish bilan bog`liq bo`ladi.

Shunday ekan muzey pedagogikasining talabalarni qiziqtirish imkoniyatlarini oshirish va uning ta'sirchanlik mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bolalarni o`qitish va ularga tularda iroda sifatlarini ta'lim berish , ahloqiy tarbiya berish ma'naviy his tuyg'ular ong shuurini shakllantirish bilan ularda iroda sifatlarini rivojlantirish hayrihoxlik va o'zaro yordam aniq bir maqsadga intilish halol

bo’lish singari fazilatlari tarbiyalash bilan birga qo’yib olib boorish kerak.[3] Bunda bizga albatta muzeyga soyohat katta yordam beradi. Undagi ekxponatlar talabani ham aqliy ham jismoniy harakat qilishga undaydi.

Muzeyga soyohat bizga yana talabani bir qancha ijobiy tarafga yo’naltirishga ya’ni:

- tarixiy materiallar, medallar, olimpiya timsoli tushirilgan znachoklar, pochta markalari kolleksiyalari, mashhur sportchilarning sport kiyimlari va shaxsiy anjomlar rasmlarini to‘plash;

- sportning milliy turlari va xalq o‘yinlariga oid tarixiy yodgorliklarni yig‘ish va o‘rganish,

- sportchilar, trenerlar, hakamlar, sport sohasidagi fan namoyondalari, O‘zbekiston sport jamoatchiligi vakillarining xalqaro sport harakatidagi hissasini namoyish etuvchi rasmlarni yi’g’ish;

- jismoniy tarbiya va sport to’g’risida ommaviy axborot vositalari orqali berib boriladiga turli hil sport ko’rsatuvarlarini qiziqish bilan kuzatishga yordam beradi.

Negaki bu muzeyda o’zbek sportining shonli g’alabalari aks etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki - muzey pedagogikasining asosiy vazifasi tashrif buyuruvchi talaba yoshlarga ham bilim berish, ham emotsional ta’sir ko`rsatish bo`lib, tomoshabinda eksponatning aslini ko`rish, yoki uni qadrlash, sportni hurmat qilish va chuqurroq o‘rganishgina bo`lib qolmay ularni sportga bo’lgan qiziqishini hamda sportdan keladigan foyda va shon- shuxratni qanchalik qadrlanishini bilib olishidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://lex.uz/acts/-461683>
2. Muzey pedagogikasi vositasida bo’lajak o’qituvchilarni turistik faoliyatga yo’naltirishning mazmuni va ddedaktik. Kibriyo Islomjon qizi Marayimova Farg`ona davlat universiteti tayanch doktoranti
3. Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti D.N.RAxmatova . L.Z.Xolmurodova. L.B.Sobirova Toshkent 2015
4. Toshkent ensiklopediyasi. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T.2009.